

SHAXSNING AXLOQIY TARBIYASI SHAKLLANISHIDA, MILLIY ETNIK URF-ODAT VA AN'ANALARNING O'RNI

Jo'rayev Atham Qoraqulovich


Termiz iqtisodiyot va servis universiteti psixologiya fani o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15339885>

Annotatsiya: Ushbu maqolada har bir individning shaxs bo'lib shakllanishida va o'z etnik qadriyatlari, urf-odatlari hamda an'analarning yosh avlodning axloqiy tarbiyasini shakllantirish shuningdek turli xalqlar bilan millatlararo munosabatlarning rivoji, o'zaro do'stlik va totuvlik rishtalarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.


Kalit so'z: Ijtimoiy munosabatlar tarixiy tajriba, milliy qadriyat, ta'lim va tarbiya, ma'naviy va axloqiy qadriyat, milliy xarakter.

Bizga ma'lumki, har bir individ shaxs sifatida shakllanar ekan, faqat o'zi yashab turgan davrdagi ijtimoiy munosabatlar ta'siri ostida bo'lib qolmasdan, shuningdek, tarixiy tajribalar, ajdodlar tomonidan yaratilgan, to'plangan va avlodlardan avlodga o'tib kelayotgan madaniy meroslar, milliy qadriyatlar ta'siri ostida ham shakllanadi. Bunda ayniqsa, har bir xalqqa xos bo'lgan milliy urf-odat va an'analarning roli kattadir. Shunday ekan, etnopsixologiyaning asosiy o'rganish ob'ektlaridan bo'lgan urf-odat, an'ana, udum va turli marosimlarni atroflicha o'rganish, ularni vujudga kelishi, namoyon bo'lishi, saqlanishi va o'zgaruvchanligi kabi qonuniyatlarini ochib berish ham nazariy, ham amaliy jihatdan ahamiyatga molikdir, [1 Etnopsixologiya]. Qolaversa yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlardan foydalanishning ahamiyati va o'rni katta. Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi. Biron bir jamiyat imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi.

Har bir davrning, shuningdek har bir xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-geografik sharoitiga mos bo'lib tushadigan va uni o'zida aks ettiradigan urf-odat va an'analari bo'ladi. Odamzot ongli hayot kechira boshlagandan buyon vujudga kelgan urf-odat va marosimlar, udum va an'analarni hisoblab chiqish qiyin. Milliy urf-odat va an'analarda butun bir xalqning ijtimoiy ehtiyojlari, ahloq normalari, manfaatlari, amaliy tajribalari va tarixiy yashash sharoitlari o'ziga xos ravishda mujassamlangan bo'ladi. Ular xalqning faoliyati jarayonida tug'iladi, [2]. Har bir xalq butun tarixi davomida yashash sharoitining xarakteri va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kishilar o'rtasidagi munosabatlarning ma'lum norma va yo'l-yo'riqlarini yaratadi. Bu norma va yo'l-yo'riqlar avlodlardan avlodga o'tishi bilan takrorlanib, urf-odat va an'analarga aylanib qoladi. Shakllangan urf-odat va



an'analar shaxsning ijtimoiy munosabatlarga kirishishida shaxsning axloqiy tarbiyasi, hulq-atvorlarini ijtimoiy jihatdan belgilovchi, boshqarib turuvchi va shakllantiruvchi vazifalarni bajaradi. Qaysi bir urf-odat va an'anani, udum yoki marosimni ularning kelib chiqish sabablarini o'rganmasdan turib qaraydigan bo'lsak, ular bir qarashda, manisiz, bo'lib ko'rinadi. Aslida esa ularning barchasi kelib chiqishi bo'yicha xalqning ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy faoliyati natijasida vujudga kelgan va ularning ma'lum moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qilgan.[3] Xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo'lga kiritgach, o'z taqdirining chinakkam egasi, o'z tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatining sohibiga aylandi. Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi. Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Taniqli faylasuf olim J.Tulyenov fikricha «Qadriyatlar dyeyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui tushunilmog'i lozim». Qadriyatlar amal qilish doirasiga ko'ra milliy, mintaqaviy va umuminsoniy turlarga bo'linadi,[4]. Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy - ruhiy hodisa bo'lib, u millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlari, an'analarini, jamiki moddiy va ma'naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy- siyosiy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Bu sohada olib borilgan ko'p yillik ilmiy izlanishlarimiz milliy qadriyatlar o'zbek xalqining ma'naviy sifatlari, moddiy boyliklarini hamda ijtimoiy- siyosiy an'analarini qamrab oladi deb xulosa chiqarishimizga imkon berdi Milliy qadriyatlar muayyan bir millat, elat va xalq hayoti, turmush tarzi, ularning o'tmishi, kelajagi va yashayotgan ijtimoiy muhiti bilan bog'liqdir deb falsafa bo'yicha qomusiy lug'atda ta'rif berib o'tilgan,[5] Milliy qadriyatlarni o'rganishda talabalarda milliy g'oya, milliy ong, milliy g'urur tushunchalari ketma-ketligini shakllantirish lozimligini ko'rsatadi. Chunki milliy g'ururi bo'lmagan inson hech qachon Vatan boyliklari qadriga yetmaydi, uni asrashni xayoliga ham keltirmaydi, ya'ni vatanparvar, fidoyi inson bo'lib yetisha olmaydi. Bu narsa insonlar psixologiyasi bilan bog'liq bo'lgan fenomen hisoblanadi. Chunki, mustahkamlanib qolgan urf-odat va ana'nalarga amal qilmaslik ko'pchilik tomonidan qoralanadi. Ko'pchilikning ta'na malomatiga qolishdan qo'rqish va tortinish, jamiyatning har bir a'zosini urf-odatlarga ongli yoki ko'r-ko'rona bo'lsa ham amal qilishga majbur qilib qo'yadi,[6]. Tarixiy tajriba, an'analarining me'ros bo'lib o'tishi- bularning barchasi yangidan- yangi avlodlarga tarbiyalaydigan qadriyatlarga aylanib



qolmog'i lozim. Bizning madaniyatimiz butun insoniyatni o'ziga rom etib kelayotgan markaz bo'lib qolganligi tasodif emas. Yurtimizning bir qancha viloyatlari Samarqand, Buxoro, Xiva faqat olimlar va san'at ixlosmandlari uchungina emas, balki tarix va tarixiy qadriyatlar bilan qiziquvchi barcha kishilar uchun ziyoratgohga aylangan. Xalqimizning etnik, madaniy va diniy sabr- bardoshi ma'naviy uyg'onishning yana bir bitmas tuganmas manbaidir. Shuningdek har bir xalqning o'ziga yarasha urf-odatlar, marosimlari bo'ladi. Agar biz dunyo xalqlarining hayotiga nazar tashlasak bir-biriga o'xshamagan, turli-tuman marosimlarni ko'ramiz. Marosimlar jamiyat, xalq va shaxs hayoti-faoliyatidagi muhim o'zgarishlar, ijtimoiy ahamiyatga molik voqea-hodisalar bilan bog'liq bo'lib, ular ibrat orqali tarbiyalash, ruhiy-estetik ta'sir ko'rsatish vazifasini bajaradi,[8]. Marosimlarda milliy, diniy, urf-odatlar va rasm-rusumlar ham o'z ifodasini topadi. O'zbek xalqining paydo bo'lishi tarixi qanchalik uzoqqa borib taqalsa, uning milliy an'analari, urf odatlari, marosimlari ham shunchalik teran tarixiy ildizga ega. Ular xalqning ma'naviy ehtiyojlari zaminida paydo bo'lib, shakllanib, sayqallanib o'z mazmunida shu xalqning orzu-o'ylari, istaklari, turmush tarzi, axloq normalarini mujassam etadi,[10]. Shuning uchun ham har bir xalq, millat, elat ularni ko'z qorachig'iday avaylab-asrashi, taraqqiy ettirishi, kelgusi avlodlarga ma'naviy qadriyat sifatida yetkazmog'i lozim.

Darhaqiqat, an'analari, urf-odatlar, marosim va bayramlar xalqning, millatning ma'naviyati, qadriyatlarini ajralmas qismidir,[7]. Milliy ma'naviy qadriyatlar ijobiy axloqiy sifatlarini takomillashtirish, davlat va millat rivojiga to'g'anoq bo'ladigan salbiy illatlarni bartaraf etish omilidir.

Har bir millatning milliy urf-odatlar va an'analari barcha millatda o'ziga xos tizimni tashkil etadi, xalq tomonidan turmush tarzining zaruriy sharti deb qabul qilinadi. Milliy urf-odatlarga befarqlik kishini, millatni o'zligidan uzoqlashtiradi. Milliy urf-odatlarda vatanga, millatga bo'lgan hurmat-e'tibor va sadoqat mujassam bo'ladi. Mamlakatimizda istiqloq davri tufayli 130 dan ortiq millat va elat vakillari urf-odat va an'analari asrab avaylash, takomillashtirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan,[9]. Bu hol millatlararo munosabatlarning rivoji, o'zaro do'stlik va totuvlik rishtalarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelgan milliy ma'naviy qadriyatlar milliy g'oyaga ma'naviy zamin, negizi bo'lib xizmat qilmoqda. Unda xalq, millat, jamiyat amal qilishi uchun kuchli, qudratli, ta'sirli milliy mafkura kerak. Milliy ma'naviy qadriyatlarining har bir tarkibiy qismi xalqning mustaqilligini mustahkamlash va kelajagini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Har tomonlama rivojlangan, milliy qadriyatlarimizni

e'zozlaydigan barkamol avlod tarbiyasida mahalla, ota-onalar va pedagoglarning o'zaro hamjixatligi asosiy omillardan xisoblanadi. Milliy qadriyatlarimizni e'zozlaydigan, o'z hayot faoliyatida doimo millat g'ururi bilan ish olib boradigan yoshlarning tarbiyalanishi millat kelajagini, rivojlanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lebedeva N.M. Etnik va madaniyatlararo psixologiyaga kirish. M. 1999 yil.
2. L.Ya.Olimov, Z.M.Maxmudova Mentalitet psixologiyasi (Monografiya) Buxoro. 2020 y
3. M.L.Umedjanova Talabalarni milliy qadriyatlar ruhida oilaviy hayotga tayyorlash. Monografiya. –Buxoro, 2022.
4. Musurmonova O. “O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish”– T.: Fan, 1993.
5. Sattarov M. «O'zbekurf-odatları» T. 2000 y.
6. D.R. Turayeva, S.D. Sharapova, S. Mamanova Etnopsixologiya Guliston 2022
7. Krisko V.G., Sarakuev E.A. Etnopsixologiyaga kirish. - M., 1996 yil.
8. N. Ismoilova D.Abdullayeva “IJTIMOIY PSIXOLOGIYA” T. 2013
9. V.M. Karimova, N. Shomurodova. “Etnopsixologiya”. Oliy yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2012
10. G.G.Shpet Etnik psixologiyaga kirish. - SPb., 1996 yil
11. Xolyigitova, B. K. (2021). Bolaning ijodiy faoliyatini rivojlantirish. Вестник магистратуры, (1-3 (112)), 64-65.
12. Najmutdinova, D. K., & Kudratova, N. A. (2015). The application of insulin analogues in the treatment of type 2 diabetes mellitus: the focus on the cardio protection. Bulletin of the Karaganda University “Biology medicine geography Series”, 78(2), 70-77.

